

TIBBIYOT XODIMLARINING MEHNAT VA SHAXSIY GIGIYENASI. SHIFOXONALARDA ICHKI INFEKSIYALARNI OLDINI OLIH CHORALARI

Yusupaliyeva Maloxat Saparovna

*Ilmiy tadqiqotchi, Ohangaron Shahar tibbiyot birlashmasi, Umumiy xirurgiya bo‘limi
katta hamshirasi*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada tibbiyot xodimlarining mehnat sharoitlari va shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishlari muhimligi yoritilgan. Shifoxonalarda ichki infeksiyalarning dolzarbligi, tarqalishining asosiy sabablari va ularni oldini olish chora tadbirlari batafsil tahlil qilingan. Tibbiyot muassasalarida sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish, tozalik va dezinfeksiya tadbirlarini muntazam nazorat qilish zarurligi ta’kidlangan. Shifoxonalarda gigiyenik talablarni qat’iy bajarish nafaqat infeksiyalar tarqalishining oldini oladi, balki bemorlarning sog‘ayish jarayonini tezlashtirishga ham xizmat qiladi. Xodimlarning gigiyena madaniyatini oshirish, sharoitlarni yaxshilash va profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish orqali kasalxona ichki infeksiyalariga qarshi samarali kurashish mumkinligiga alohida yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Statik, fizioterapiya, novokain, balneoterapiya, decompression, batsilla, angiografiya, koronorografiya, kavografiya, stafilokokklar, streptokokklar, gospital, kateter, traxeotomiya, aseptika, antiseptika, rekonvalestsentlar, yiringli-septik, kokklar, polietilogik

Hozirgi kunda tibbiyot muassasalari va xodimlariga ko‘plab e’tibor qaratilmoqda. Tibbiyot xodimlari mehnatini yengillashtirishga imkon beradigan sharoitlarni yaratish kasalxona gigiyenasining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mehnat jarayonini takomillashtirish bo‘yicha tadbirlar majmuyini o‘tkazish yo‘li bilan tibbiy xodimlar charchashining oldini olish mumkin. Poliklinika va kasalxonalarda shifokorlar xonalari, muolaja xonalari, navbatchi hamshiralar ishlash o‘rni, ordinatorlar, laboratoriya xonalari eng zarur ish joylari hisoblanadi. Ish joyi jihozlariga: tibbiy asboblari, yozuv qurollari, hujjatlar, tashkiliy texnika va tezkor aloqa vositalari kiradi. Hujjatlarni yurgizishga ketadigan vaqtni qisqartirish muhim tadbirlardan hisoblanadi. Jumladan, tibbiyotga oid yozuv-hisob ishlarida hujjatlashtirishning bosmaxona imkoniyatlaridan foydalanish lozim. Tibbiy xodim bu qog‘ozlardan foydalanar ekan, zarurining tagiga chizib qo‘ya qoladi. Ma’lumki, bemorga beriladigan yozma tavsiyalar og‘zakisiga qaraganda samarali bo‘ladi. Chunki og‘zaki tavsiyalarni bemorlar faqat 30—35% eslab qoladilar.(1-327)

Tibbiy xodimlar uchun quyidagilar birmuncha ahamiyatli hisoblanadi:

1. Skelet mushaklarining statik taranglashishi, masalan, operatsiya vaqtida jarroh gavdasining majburiy holati, stomatologning bemorga qarayotgandagi holati.

2. Atrof-muhitning zararli kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi. Bulardan eng muhimi amaliyot xonasi havosini narkotik birikmalar bilan, rentgen va fizioterapiya xonalarining simob-kvars lampalarini ishlatishda ozon va azot oksidlari, lazer nuridan foydalanilganda

biologik to'qimalarning chala yongan mahsulotlar bilan ifloslanishi. Kasalxonalar binosi havosida aerozollar antibiotiklar va boshqa dori moddalar bug'i, masalan, aerazol terapiya, sezuvchanlikni oshiruvchi ta'siri bo'lgan dezinfeksiyalovchi moddalar bilan ifloslanishi mumkin. Novokain, aerazol yoki antibiotiklar, yuvuvchi tozalovchilar va boshqa birikmalarning teriga tegishi natijasida allergik holatlar yuzaga kelishi kuzatilgan.

3. Juda isitib yuboradigan mikroiklim. U issiqlik idora etilishini kuchaytirib, birinchi navbatda suv va balchiq bilan davolash xonalari, balneoterapiya bo'limi, ovqat bloki, kir yuvish xonasida xodimlar sog'ligiga va ish qobiliyatiga noxush ta'sir ko'rsatadi. Issiq havo jarrohning ish qobiliyatiga ayniqsa yomon ta'sir etishi mumkin.

4. Atmosfera bosimi. Yuqori bosimda ishlaganda azotning narkotik toksik ta'sir etishi, past bosimda tavsiya qilingan tadbirga rioya qilinmaganda dekompression kasallik ro'y berishi mumkin.

5. Yuqumli kasalligi bor bemor yoki batsilla tashuvchi bilan muloqotda bo'lgan tibbiy xodim kasalxona gigiyenasi va shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilmaganda yuqumli kasalliklar bilan og'rib qolishi mumkin. Masalan, gripp epidemiyasi bilan tibbiy xodim boshqalarga qaraganda 2, 1/2-3 baravar, yuqumli gepatitda esa 4-10 baravar ko'p kasallanadi.

6. Ionlashtiruvchi nurlar. Rentgen xonasi, radiologiya bo'limi, radonli vannaxona, angiografiya, koronorografiya va kavografiya xonalarida xizmat qiladigan xodimlar, shuningdek yuqoridagiga o'xshash nazoratda operatsiya qiladigan jarroh ionlashtiruvchi va radioaktiv nurlar hamda radioaktiv moddalar ta'siriga uchrashi mumkin.(2-272,273)

Tibbiy xodimga ta'sir etadigan boshqa omillarga ultratovush, lazer nuri, turli diapozondagi elektromagnit maydoni va boshqalar kiradi.

Kasalxonaga ishga kiradigan barcha kishilar, albatta, tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Oziq-ovqat bloki xodimlari va bevosita bemorlarga xizmat ko'rsatadigan kichik xodimlar har oyda tibbiy ko'rikdan o'tkazib turiladi, yarim yilda bir marta batsilla tashuvchanlikka (ichak infeksiyalarini qo'zg'atuvchilari) tekshiriladi. Chaqaloqlarga va ba'zi bemorlarga xizmat ko'rsatadigan tibbiy xodimlar burun-halqumda patogen stafilokokklar va streptokokklar borligiga tekshiriladi. Bunday qo'zg'atuvchilarni tashuvchilar kasallikdan forig' bo'lmaguncha ishga qo'yilmaydi.(1-328)

Hozirgi kunda ko'plab davlatlarda hatto rivojlangan davlatlar shifoxonalarida ham ichki infeksiyarni yuqtirish holatlari kuzatilmoqda. Buning asosiy sababi qilib kasalxonalarda sanitariya tartiblarining buzilishi asos qilib olinadi. Kasalxona ichi infeksiyalarining (KII) oldini olish muammosi hozirgi kunda dunyodagi barcha iqtisod jihatdan rivojlangan va rivojlanayotgan, o'tish, stabil bo'lmagan va iqtisodi qoloq mamlakatlar uchun ham birdek dolzarbdir. KII tabiati na faqat davolash sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy ta'minlanganlikning yetarli darajada emasligi bilan, balki makro- va mikrobiotsenozlarning evolyutsiyasi va xo'jayin orga-nizmi va mikroflora munosabatlarining dinamikasiga ham bog'liqdir. KKI o'sishi qaysidir bosqichda yangi diagnostik va davolash prepa-ratlarini yoki boshqa turdagi tibbiy vositalarni qo'llash, ya'ni

murakkab muolajalar va jarrohlik amaliyotida progressiv, lekin mukammal o‘rganilmagan uslublardan foydalanishga bog‘liq.(4-120)

Bemor kasalxona sharoitida yangi kasallikni o‘ziga yuqtiradi, ya’ni gospital infeksiyasini o‘ziga oladi. Bunga sabab bemorning infeksiyaga qarshi kurashish kuchining pasayib ketishidir.

Gospital infeksiyasi ichki va tashqi infeksiyalardan iborat bo‘lib, bular kasallar tomonidan meditsina muassasalariga tashqaridan keltiriladi. Bunday hollarning paydo bo‘lishiga quyidagi omillar sabab bo‘ladi:

- a) bemor organizmining infeksiyaga qarshi kurashish kuchining pasayishi;
- b) palata xonalarida kasal chaqiruvchi mikroblarning yig‘ilib qolishi;
- d) turii mikroblarning xona sharoitiga moslashib o‘sishi va ko‘payishi;
- e) bemorlarning infeksiya bilan zararlanashi.(3-351)

Shuni ham ta’kidlash kerakki, shifoxonalar ichki infeksiyasi kasalliklarning turiga, bemor davolanayotgan kasalxonada tarqalgan infeksiyaga bog‘liq. Jarrohlik bo‘limlarida ko‘pincha operatsiyadan so‘nggi infeksiyalar bemorlarning shifoxonada ko‘proq davolanishiga sabab bo‘ladi, Bemor terisida goho paydo bo‘lgan arzimagan jarohatlar ham infeksiya tushishi natijasida yiringli yaraga aylanadi. Ko‘pincha tashxis qo‘yish yoki davolash maqsadlarida ishlatiladigan asbob-anjomlar ham organlarga infeksiyalar tushishiga yoki kirishiga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, siydik yo‘liga kateter qo‘yish siydik qopi yallig‘lanishini yoki siydik yo‘llari yallig‘lanishini keltirib chiqarishi mumkin. Nafas yollarining traxeotomiya qilinishi ayrim hollarda kasalning qo‘shimcha infeksiya bilan zararlanishiga olib keladi.(3-351,352)

Aslini olganda kasalxona ichki infeksiyalarining tarqalish sabablari juda ham ko‘p. Buning oddiy birgina sababi kasalxonalarda mikroblarga qarshi olib boriladigan choratadbirlarning yaxshi bajarilmasligidir.

Shifoxonalarda ichki infeksiyalar tarqalishiga kasalxona xodimlarining mikroblarga qarshi kurashga befarq qarashlari sabab bo‘lmoqda. Jumladan, qo‘lni yaxshi yuvmaslik va dezinfeksiya qilmaslik, aseptika va antiseptika prinsiplarini to‘la-to‘kis bajarmaslik, bemorlarning sanitariya qoidalarining bajarmasliklari va boshqalar kasalxona ichki infeksiyalarining tarqalishiga olib boradi. Ayniqsa, mikroblarga qarshi kurashish qoidalarining buzilishi, sog‘liqni saqlash muassasaiari binolarining eskirganligi, o‘z vaqtida remont ishlarining olib borilmasligi, tibbiy xizmatni bajarish uchun ishlatiladigan asbobuskunalarining eskirib ketganligi, asboblarning markazlashgan sterilizatsiya xonalarida dezinfeksiya qilinmasligi yoki sterilizatsiya jarayonining to‘lato‘kis bajarilmasligi va boshqa sabablar shifoxonalarda ichki infeksiyalarning tarqalishiga yo‘l ochib beradi . Havoni xonaga konditsionerlar yordamida yoki ventilyatsiya yoli bilan berish va boshqa uslublar mikroblar kamayishiga imkon beradi. Keyingi 25-30-yil ichida infeksiyalar turli antiseptik, dezinfeksiya uchun ishlatiladigan kimyoviy moddalarga hamda antibiotiklarga nisbatan ham chidamligi oshganligi kuzatilmoqda. Mikroblar hatto dezinfeksiya uchun ishlatiladigan moddalarning o‘zida ham rivojlanmoqda. Shuning uchun ham kasalxona sharoitida infeksiyalarga qarshi kurashish borgan sari qiyinlashmoqda.(3-352)

Bizning respublikamizda stafilokokklarga doir infeksiyalar, "B" gepatiti, bolalar o'rtasida uchraydigan infeksiyalar (qizamiq, qizilcha, ko'k'yo'tal kabilar) eng katta ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, shu narsani nazarda tutish lozim-ki, OITS kasalligiga uchragan juda ko'p bemorlarda (BDX-da qayd qilingan bemorlar ichida) OIV bilan zararlanish tibbiy xodimlarning shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmasligi yoki boshqa sabablarga ko'ra kelib chiqqanligi aniqlangan. Kasalxona ichi infeksiyasini tarqatuvchi manbalar qatoriga kasallikka chalingan bemorlar, tibbiy xodimlar, bemorlarning oldiga keluvchilar, shu jumladan mikroob tashuvchilar va rekonvalescentlar bo'lishi mumkin. Toshkent shahridagi tug'uruqxonalarda qayd qilinayotgan stafilokokka oid infeksiyani tarqatuvchi eng muhim manba kichik tibbiy xodimlar, hamda surunkali shaklda kechuvchi yiringli-septik kasalliklari bor bo'lgan tug'adigan ayollarning o'zlari hisoblanadilar.(4-122)

Shuni ham alohida aytish lozimki, yiringli shamollash kasalliklarining 80% ga yaqini (chaqaloqlar va tug'uvchi ayollardagi) stafilokokklar va antibiotiklarga chidamli bo'lgan kokklarga taalluqlidir. Rossiyaning Moskva shahrida olib borilgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, bemorlar o'rtasida tarqaladigan patogen stafilokoklar tashuvchisining 69% ini kichik tibbiy xodimlar (sanitarkalar), hamshiralar 53%, shifokorlar 42%ni tashkil etar ekan. Kasalxona ichi infeksiyalarini oldini olishga qaratilgan tadbirlarni 3 guruhga bo'lish mumkin.(4-122)

1. Infeksiya manbaiga nisbatan bo'ladigan tadbirlar: bemorlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni izolyatsiya qilish va manbani sanatsiya qilish.

2. Infeksiyaning uzatilish yo'llarini uzishga qarshi qaratiladigan tadbirlar.

Kasalxona ichi infeksiyalarining polietologik tabiatlariga muvofiq, arxitektura-rejalashtirish, sanitariya-gigiyenaga doir, tashkiliy tadbirlar kompleksini o'tkazish kasalxona ichi infeksiyalarini oldini olishdagi asosiy tadbirlar hisoblanadi.

Arxitekturaga doir rejalashtirish tadbirlari kasalxona muhitining ifloslanishini inobatga olib, kasalxona bo'limlari va undagi maxsus xonalarning bir-biridan ajratish lozimligini nazarda tutadi. Bu tadbirlar kasalxonalarining ifloslanuvchi bo'limlari ya'ni yuqumli kasalliklar bo'limlari, tug'uruqxona, jarrohlik va bolalar bo'limlari uchun eng ahamiyatli hisoblanadi. Bu bo'limlarning rejalashtirilishi va jihozlanishi-ning o'ziga xos xususiyatlari haqida quyida batafsil tafsilotlar beramiz.

Sanitariya-gigiyenaga doir tadbirlar bu ma'lum ko'rinishdagi tartiblar majmuasi bo'lib, ularga xonalarni tozalash, oqilona shamollatish, ultrabinafsha nurlardan bakteritsid ta'sir maqsadlarida foydalanish, instrumentlarni sifatli sterilizatsiya qilish, yumshoq inventarlar (choyshablar, yostiq jildlari, jarrohlik materiallari, kiyim-kechaklar), xodimlar va bemorlarning shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishlari, kasalxonaning suv ta'minoti, kanalizatsiyasi, axlatlarni qoida asosida chetlashtirish va zararsizlantirish kabilar kiradi. Tashkiliy tadbirlarga lozim bo'lganda karantinga doir tadbirlarni o'rnatish, turli patologiyalarga doir bemorlarni kasalxonaga alohida qabul qilish, bemorlarning oldiga keluvchilarni tashkiliy tarzda kiritish qoidalariga rioya qilishlari kabilarni kiritish mumkin.

3. Bemorlar va xodimlar organizmining kasallikka qarshi kurashish qobiliyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar. Bu tadbirlar umumiy (badanni chiniqtiruvchi tadbirlar, ovqatlarni vitaminlashtirish) va maxsus (xodimlarni profilaktik emlashlardan o‘tkazish) turlariga bo‘linadi.(4-122,123)

Shifoxona muhitida ekologik gigiyena va ichki infeksiyalarni oldini olish nafaqat tibbiyot xodimlari, balki har bir inson uchun ham muhim masaladir. Hozirgi jamiyatda shifoxonalarda infeksiyalar tarqalishi ko‘p hollarda gigiyena talablarining buzilishi bilan bog‘liq. Qo‘llarni yuvmaslik, sterilizatsiya jarayonlariga yetarlicha e‘tibor bermaslik, eski va to‘g‘ri ishlatilmagan tibbiy asbob-uskunalar infeksiyaning keng tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, tibbiyot xodimlari bemor bilan bevosita muloqotda bo‘lishgani uchun ularning shaxsiy gigiyenasi va ehtiyot choralariga amal qilishi juda muhim. Infeksiyalarni kamaytirish uchun kasalxonalarda qat‘iy sanitariya-gigiyena tartiblariga rioya qilish, shamollatish tizimlarini yaxshilash, antiseptika va aseptika qoidalarini doimiy nazorat qilish zarur. Shuningdek, bemorlarning immunitetini mustahkamlash, ularning infeksiyalarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Agarda behosdan ichki infeksiya kasalliklarini yuqtirib olishgan taqdirda ham uni ertaroq hali jiddiy tus olishidan avval davolsh choralarini ko‘rish kerak. Profilaktik emlashlar, shifokorlarning muntazam tibbiy ko‘rikdan o‘tishi va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish ham ichki infeksiyalarning oldini olishda asosiy mezon hisoblanadi. Umuman olganda, shifoxonalarda gigiyena talablariga to‘liq rioya qilinsa, infeksiyalarning oldini olish mumkin. Buning uchun har bir tibbiyot xodimi o‘z mas‘uliyatini chuqur his qilishi va gigiyena qoidalariga qat‘iy amal qilishi kerak. Sog‘liqni saqlash muassasalarida tartib va tozalik ta‘minlansa, nafaqat bemorlarning tezroq sog‘ayishiga, balki jamiyki barchaning salomatligining yaxshilanishiga ham xizmat qiladi deb o‘ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizov M.A., Solixo‘jayev S.S., Qambarova Sh.Q. Azizov M.A., Solixo‘jayev S.S., Qambarova Sh.Q. Gigiyena: Gigiyena: Gigiyena: Tibbiyot kollejlari talabalari uchun darslik. – T.: „O‘qituvchi“, 2003. — 336 b
2. Azizov M. Umumiy gigiyena va ekologiya [matn]: Tibbiyot kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma/M.A. Azizov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi. To‘rtinchi nashri. T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2016.288 b.
3. Kommunal gigiyena [Matn] ; darslik / H.E. Rustarriova va boshqalar; - T.; «TURON-IQBOL», 2020. - 400 b.
4. Gigiyena. Tibbiy ekologiya [Matn]: qo‘llanma / F.I. Salomova, Sh.T. Iskandarova [va boshq.].-Toshkent: "KALEON PRESS", 2021.- 592 b